

ABULQOSIM FIRDAVSIYNING "SHOHNOMA" ASARIDAGI "RUDOBA" VA "SUDOBA" OBRAZINING TALQINI

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti tojik tili ta'lim yo'naliish ikkinchi bosqich talabasi

Norqo'chqorov Firdavs Shavkatzoda

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asaridagi ayol obraz xususiyati ko'rib chiqiladi. Ayol obrazi musbat va manfiy obrazlarga bo'lish tamoyillari yuzaga keladi. Rudoba obrazi ham oshiq va ham ona sifatida tahlil qilinadi. Sudoba obrazining manfiy xususiyatlarini to'laligicha ochib berish imkoniyati yaratiladi.

Kalit so'zlar: obraz, Rudoba, Firdavsiy, Shohnoma, fors-tojik, asotir.

«Shohnoma»-ni tugatib, Somoniylariga taqdim etishni maqsad qilgan, ammo «Shohnoma» tugagach, Somoniylar davlati allaqachon parchalanib ketgan edi. Oradan uzoq yillar o'tib shoirning do'stlari unga “Shohnoma”-ni Sulton Mahmudga hadya qilishni maslahat berishadi. Abulqosim Firdavsiy do'stlari maslahati bilan o'zining qimmatli asarini Sulton Mahmudga hadya qiladi. Biroq Mahmud “Shohnoma”-ni qabul qilmadi, chunki “Shohnoma” G'aznaviyilar manfaatlarni, ayniqsa, Sulton Mahmud manfaatlarini himoya qilmas edi. Albatta, bu asar, zolim va bosqinchi podshoh bo'lgan Sulton Mahmudga yoqmasligi aniq edi. Sulton Mahmud G'aznaviy shoirning barcha orzu-umidlarini puchga chiqardi. Sulton Mahmud “Shohnoma”-da o'z maqsadiga zid g'oyalarni ko'rib, asarni qabul qilmadi. Sulton shoirni qadrlamagach, Firdavsiy, Mahmud va uni yaqinlarining tuhmati va yomonliklari evaziga o'zining mashhur hajviyasi “Guftor dar hajvi Sulton Mahmud”-ni yozib, G'aznani tark etadi.

Hajviyadan porcha:

Chu andar taborish buzurgi nabud,

Naylorist nomi buzurgon shunud.

Firdavsiyning “Shohnoma”-si 30 yil davomida yozilgan noyob qahramonlik qissasi bo'lib, 60 ming baytdan ibiratdir.

“Shohnoma”-da ayol obrazi barcha jihat bilan namoyon bo‘ladi. Ulug‘ shoir ularni haqiqiy xulq-atvori bilan “Shohnoma”-ga joylashtira oldi.“Shohnoma”-da erkaklar qatori ayollarning ham alohida o‘rni bor. Firdavsiy o‘zining betakror ijodi orqali ayol xarakterining deyarli barcha nozik tomonlarini ochib bergan. Faronak, Shahnavoz, Rudoba, Tahmina, Gurdofarid, Sudoba, Farangis, Manija, Ruxshonak va boshqalar erkaklar qatori jonbozlik ko'rsatgan qahramon ayollardandir.Aytish joizki, “Shohnoma”-dagi har bir ayol obrazi bilan bog‘liq alohida tadqiqotlar mavjud bo‘lib, tadqiqotchilar ularni yuksak va ko‘zga ko‘rinarli joyda ko‘rsatgan.“Shohnoma”-da xotin-qizlarning maqomi to‘g‘risida dunyoning taniqli olimlari, shuningdek, tojik olimlari va boshqalar tomonidan ko‘plab ilmiy ishlar qilingan.

RUDOBA - Firdavsiyning “Shohnoma”-si qahramonlaridan biri, Rustamning onasi, podshoh Kobul Mehrob va malika Sinduxtning qizi hisoblanadi. Rudoba va Zol (Zoli Zar) ishq qissasi “Shohnoma”-ning eng ta’sirchan ishqiy qissalaridan biri bo‘lib, asarning qahramonlik va epik tasvirlarining umumiy chizig‘ida ma’lum o‘rin tutadi. Zol Kobulda sayohat qilganida qarindoshlaridan birining Rudobaning betakror go‘zalligi haqidagi hikoyasini eshitib, uni sevib qoladi. Rudoba ham Zolni ko‘rmagan, lekin otasini Zolning yaxshi fazilatlari haqidagi so‘zlarini eshitib, uni chin yurakdan sevadi. Rudoba kanizalar orqali Zolni mehmonga taklif qildi va ikki oshiq bir-birlari bilan ahd qildilar. Ularning bir-biri bilan uchrashish yo'lida ko‘plab to’siqlar mavjud bo'ladi.Rudoba va uning ajdodlari Zahhok urug‘idan bo‘lganliklari uchun dastlab Som – Zolning otasi va Eron mamlakati podshosi Manuchehr ularning nikohiga rozi bo‘lmagan. Ikki oshiqning sa'y-harakatlari - Rudoba otasining qaysarligi va jaholatiga qarshilik ko'rsatdi. Zol otasini - Som va u orqali podshoh Manuchehrni ko'ndirgan va nikohdan o'tishgan. Rudoba “Shohnoma”-ning boshqa ayol qahramonlari kabi faol va jasur qiz. Maqsadga erishish yo'lida u ko‘p harakat qiladi, uning yo'lida hech qanday to'siqlar, jumladan, diniy urf-

odatlar, irq va haqoratlar to'sqinlik qila olmaydi. Rudoba g'amxo'r va mehribon ona hisoblanadi. U o'g'li Rustamni janglarga, Eronzaminni dushmanlar qo'lidan ozod qilish uchun yuboradi, safar oldidan o'g'liga pandu nasihatlar beradi.

Noziktab Firdavsiy shunday yozgan:

Se digar chu Rudobai xubro'y,
Yake sarvi simini borangu bo'y.
Zi sar to ba poyash gul astu suman,
Ba sarvi sahi bar Suhayli Yaman.
Hame may chakad, go'i, az ro'i o',
Abir ast, go'i, hama mo'i o'.
Az on gunbadi simzar bar zamin
Furo' hishta bar gil kamandi kamin.
Ba mushku ba anbar sarash bofta,
Ba yoqtu gavhar tanash tofta.

Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma"-sida Sudoba ayolning salbiy obrazlaridan biri bo'lib, shu ma'noda u ko'proq ko'rindi. Sudoba, Homovaron (Yaman) podshohining qizi, Siyovushning o'gay onasi Kaykovusning xotini bo'lib, uning obrazi avval ijobjiy, keyin salbiy. Hakim Firdavsiy, Sudoba timsolida ayolning bevafolik, makkorlik, nafs, yolg'on va boshqa nomaqbul xatti-harakatlari kabi barcha xunuk xususiyatlarni tasvirlab bergen. Begunoh Siyovushning g'azabidan g'azablangan va sarosimaga tushgan Rustam, aybdor Sudobani podshoh yotoqxonasidan chiqarib, o'ldiradi va Kovushshohga aytadi:

Kase, k-o' buvad mehtari anjuman,
Kafan behtar o'ro zi farmoni zan!
Siyovush zi guftori zan Shud ba bod,
Xujasta zane, k-o' zi modar nazid.

Ferdavsiyning "Siyovush" qissasida Sudoba shahzodani opalari bilan yotishga, Kovusdan ruxsat so'ragani zikr qilingan. Shahzodaning iltimosisiz har qanday bahona bilan Siyovushni uch marta podshoh yotog'xonasiga chaqirgan.Uchala holatda ham

uchrashuvda Siyovushga muhabbat izhor qiladi. Sudoba uchinchi uchrashuvlarida Siyovushdan rad javobini olgach, shahzoda unga bu taklifni aytgandek tuhmat qila boshladi va podshoh Kovusni o'z so'ziga ishontirdi: "Siyovush undan g'azablanib o'rnidan tursa, uning rohati oshkor bo'lganini, o'zi sharmanda bo'lganini ko'rgan Sudoba ayyorlik bilan ko'yakini yirtib, yuzini tirnab, taxtdan o'zini pastga tashlaydi".

Siyovush va Sudoba haqidagi hikoya Evripidning "Ippolit" haqidagi afsonaga juda o'xshaydi. Bu afsona asosida qadimgi yunon tragediyachisi Evripid «Ippolit», Rim yozuvchisi Senaka «Fedra» va frantsuz klassitsizmining atoqli dramaturgi Rasin «Fedra» tragediyalarini yozgan. Ushbu fojialarning asosi Afina shohining rafiqasi Fedraning o'gay o'g'li Ippolit bilan bo'lgan munosabati tashkil etadi. Fedra turmush o'rtog'i Teyzaning uzoq safaridan foydalanib, Ippolitga o'z sevgisini izhor qiladi, lekin bu yigit ham xuddi Siovush singari o'gay onasining iltimosini rad etadi. Fedra, Sudoba singari, Hippolitga tuhmat qiladi. Sudoba va Fedraning hikoyasi o'xhash bo'lsa ham, Fedra, Ferdavsiyning Sudobasi kabi, shafqatsiz va razil odam emas. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, u Evripid fojiasida ham, Rasin fojiasida ham olijanob va sezgir obraz, vijdon egasi, insoniy muhabbatni his qiladi. Sudoba obraqi ko'p jihatdan qadimgi Misr adabiyoti, yahudiy va nasroniy mifologiyasi, Qur'on surasidan kelib chiqqan mashhur "Yusuf va Zulayho" qissasidagi Zulayho obraziga o'xshaydi. Bu "Yusuf va Zulayho" qissasida Zulayhoning bevaqt va o'rinsiz muhabbatni amalga oshmaganligi tufayli, g'azab va nafratga aylanadi va Yusuf qamoqqa tashlanadi. "Siyovush va Sudoba", "Yusuf va Zulayho" hikoyalari o'rtasidagi mushtarak jihat shundaki, begunoh yigit turmush qurgan ayol muhabbatiga qarshi turadi. Bu ikki personajning yagona farqi shundaki, Zulayho umrining oxirida isloh qilinadi, ammo Sudoba o'zining yovuz xatti-harakatlari tufayli Eron taxti vorisi shahzoda – Siyovushning o'limiga sabab bo'lgani uchun, o'limga hukm qilinadi va Rustam tomonidan o'ldiriladi. Bu hikoyada Firdavsiy Sudobaning yovuz fazilatlarini ko'proq ko'rsatish maqsadida yana bir lahzani takrorlaydi, bu ham Sudobaning yomonligini ko'rsatadi. Tojik tadqiqotchisi Abdolov Nazarbek o'zining "Firdavsiy "Shohnoma"sida ishq qissalari" monografiyasida Sudobaning asrandi o'g'li Siyovushga bo'lgan axloqsiz

va bir yoqlama muhabbati haqida shunday fikr bildirgan: “Syovush va Sudoba” qissasida insoniy munosabatlarning ikkinchi tomoni – jismoniy istaklarga doimiy ishtiyoq birinchi o‘rinda turadi. Darhaqiqat, odamlarda jismoniy istaklar ham bor. Bunday istaklar kuchayib, axloqiy me’yorlar, insoniy va oilaviy urf-odatlar o’lchovlaridan tashqariga chiqsa, ular haqiqatan ham inson qiyofasini buzadi. Sudoba shunday odam. U nafs va hayvoniy hirsga bo’ysunadi, endi yaxshi-yomonni bilmaydi, yolg’on, xiyonat, tuhmat va hatto go’daklarni o’ldirish yo’liga boradi. Bu ham inson odob-axloqidan dalolatdirki, bundan faqat o’lim qutqaradi”.

ADABIYOTLAR:

1. Шоҳнома. Қисми 2. Абулқосим Фирдавсӣ. Душанбе, Дониш, 97 с.
2. Антик адабиёт тарихи. А.Алимуҳаммедов. – Тошкент, “Ўқитувчи” соли 1969.
3. Таърихи адабиёти тоҷик (Аз давраи қадим то асри XIII). Китоби I.-Душанбе, “Маориф”, соли 1987.саҳифаи 400.
4. Назарияи адабиёт. Раҳим Мусулмониён. – Душанбе, “Маориф” соли 1990.
5. Чет эл адабиёти тарихи. О. Қаюмов. – Тошкент, “Ўқитувчи” соли 1973.